

## VIII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR

Viloyatning tashqi savdo aylanmasi 2023 yilning yanvar-iyun oylarida 653,3 mln.AQSH dollarini yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 116,8 foizni, shu jumladan, eksport 146,8 mln.AQSH dollarini, o‘tgan yilga nisbatan 106,0 foizni, import 506,5 mln.AQSH dollarini, o‘tgan yilga nisbatan 120,4 foizni tashkil etdi.

Tashqi savdo saldosи minus -359,7 mln. AQSH dollarni, shu jumladan MDH davlatlari bilan minus -258,5 mln.AQSH dollarni va boshqa davlatlar bilan minus -101,1 mln. AQSH dollarni tashkil etdi.

### **2023 yil yanvar-iyun oylarida MDH va boshqa davlatlar kesimida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (ming AQSH dollari)**


	yanvar-iyun		2022 yil yanvar-iyunga nisbatan, foizda
	2022 yil	2023 yil	
<b>Tashqi savdo aylanmasi</b>	<b>559138,7</b>	<b>653293,0</b>	<b>116,8</b>
MDH mamlakatlari	291256,7	422613,2	145,1
boshqa xorij mamlakatlari	267882,0	230679,7	86,1
<b>Eksport</b>	<b>138456,9</b>	<b>146814,6</b>	<b>106,0</b>
MDH mamlakatlari	68533,2	82051,0	119,7
boshqa xorij mamlakatlari	69923,7	64763,6	92,6
<b>Import</b>	<b>420681,8</b>	<b>506478,4</b>	<b>120,4</b>
MDH mamlakatlari	222723,5	340562,3	152,9
boshqa xorij mamlakatlari	197958,3	165916,1	83,8
<b>Saldo</b>	<b>-282224,9</b>	<b>-359663,8</b>	<b>x</b>
MDH mamlakatlari	-154190,2	-258511,3	x
boshqa xorij mamlakatlari	-128034,7	101152,5	x

## **Tashqi iqtisodiy faoliyat**

## *Buxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati*

So‘ngi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishni, eksportni qo‘llab – quvvatlash, import o‘rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o‘zgarishga erishildi. Jumladan, xom-ashyo eksportidan, qo‘shilgan qiymati yuqori, hamda sarmoya talab tovarlar eksportiga yo‘naltirilgan tashqi savdo amalga oshirilmoqda.

### **2023 yil yanvar-iyun oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida MDH va boshqa davlatlarning ulushi**



*Viloyatimiz rezidentlari tomonidan amalga oshirilgan tashqi savdo operatsiyalarida asosiy ulushlarni Osiyo (66,7 foiz), Yevropa (32,6 foiz) davlatlari egallamoqda va ularning umumiy savdo aylanmasidagi ulushi 99,3 foizni tashkil etmoqda.*

Buxoro viloyatining 2023 yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasidagi ulushining 64,7 foizi MDH davlatlariga to‘g‘ri keladi qolgan, 35,3 foizi boshqa davlatlar hissasiga to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatkichlar 2022 yilda mos ravishda 52,1 foizi MDH davlatlariga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, qolgan 47,9 foizi boshqa davlatlar hissasiga to‘g‘ri keldi. Buxoro viloyatining MDH davlatlari bilan olib borilgan tashqi savdo aylanmasi 2023 yil yanvar-iyun oylariga 653,3 mln. AQSH dollarni tashkil qilgan bo‘lsa, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 16,8 foizga ko‘payish kuzatilgan. Shundan eksport 6,0 foizga ko‘paydi va import 20,4 foizga ko‘paygan.

## **Tashqi iqtisodiy faoliyat**

Dunyodagi mamlakatlar orasida eksportda xamkor davlatlar Qozog‘iston, Rossiya, Xitoy, Turkiya, Turkmaniston hisoblanib, ularning jami eksportdagi ulushi 77,7 foizni tashkil qiladi, importda esa xamkor davlatlar Turkmaniston, Rossiya, Turkiya, Xitoy, Qozog‘iston davlatlari hisoblanadi va ularning ulushi 85,8 foizni tashkil qiladi.

MDH davlatlari orasida tashqi savdo aylanmasida asosiy xamkorlar Rossiya, Turkmaniston, Qozog‘iston, Tojikiston va Qirg‘iziston davlatlari hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 97,0 foizni tashkil qildi. Boshqa davlatlar orasida esa Eron, Turkiya, Xitoy, Germaniya, Afg‘oniston davlatlarining ulushi 77,1 foizni tashkil qildi.

**Tashqi savdo aylanmasida nisbatan katta ulushga ega bo‘lgan davlatlar**  
(2023 yil yanvar–iyun)

(mln. AQSH dolları)

	<i>Eksport</i>	<i>Import</i>	<i>Tovar aylanmasidagi ulushi, foizda</i>
Rossiya	37,0	249,3	43,8
Afg‘oniston	19,6	0,1	3,0
Turkiya	14,2	25,7	6,1
Tojikiston	14,1	0,8	2,3
Qozog‘iston	11,4	38,7	7,7
Qirg‘iziston	10,2	2,2	1,9
Turkmaniston	5,5	40,8	7,1
Xitoy Xalq Respublikasi	4,9	80,2	13,0
Polsha	4,5	3,8	1,3
Germaniya	3,9	8,7	1,9
Eron Islom Respublikasi	2,3	17,1	3,0
Litva	0,7	9,2	1,5
Belorus	-	7,4	1,1

## Tashqi iqtisodiy faoliyat

## *Buxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati*

Viloyatning 2023 yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdoda eng asosiy hamkor davlatlari Rossiya (43,8 foiz), Turkmaniston (7,1 foiz), Xitoy (3,0 foiz), Qozog‘iston (7,7 foiz) hisoblanib, ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi (71,6 foiz)ni tashkil qiladi.

### **MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi**

(ming AQSH dollari)

	<i>Eksport</i>		<i>Import</i>	
	<i>yanvar-iyun</i>		<i>yanvar-iyun</i>	
	<i>2022 yil</i>	<i>2023 yil</i>	<i>2022 yil</i>	<i>2023 yil</i>
<b>Jami</b>	<b>68533,2</b>	<b>82051,0</b>	<b>222723,5</b>	<b>340562,3</b>

*shu jumladan:*

Ozarbayjon	553,5	1785,9	2494,3	796,3
Armaniston	17,7	149,1	-	9,8
Belorisiya	269,5	4,6	1673,9	7444,7
Qozog‘iston	13545,6	11435,3	23367,0	38688,6
Qirg‘iziston	12678,6	10163,8	797,7	2235,4
Moldova	66,4	75,5	-	249,7
Rossiya	32213,5	37037,2	74274,4	249290,8
Tojikiston	2921,0	14133,6	2712,8	831,1
Turkmaniston	4106,3	5529,4	115881,4	40767,2
Ukraina	2161,0	1736,5	1521,9	248,6

## **Tashqi iqtisodiy faoliyat**

*Buxoro viloyatining  
ijtimoiy-iqtisodiy holati*

Viloyatning eksport tarkibida barcha tovarlar va xizmatlar guruhlari bo'yicha o'sishi kuzatilmoxda. Kimyoviy vositalar mahsulotlari eksporti o'tgan yilning shu davriga nisbatan 42,0 foizga va mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar 46,9 foizga o'sgan.

Import tarkibining umumiy hajmidan 56,1 foizni mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar, 22,3 foizini mashinalar va transport asbob-uskunalar tashkil qiladi.

**2023 yil yanvar-iyun oylarida eksport-import tarkibi**

(mln. AQSH dollari)

	<i>2022 yil</i>	<i>2023 yil</i>	<i>2022 yil yanvar- iyunga nisbatan, foizda</i>
<b>Eksport tarkibi</b>	<b>138,5</b>	<b>146,8</b>	<b>106,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	21,4	13,8	64,3
Ichimliklar va tamaki	0,4	2,0	4,9 m.
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	14,4	6,2	43,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	18,4	27,1	146,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,0	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	3,7	5,3	142,0
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat	69,7	70,6	101,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	-	2,8	-
Turli xil tayyor buyumlar	3,6	8,6	2,4 m.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat**

**Buxoro viloyatining  
ijtimoiy-iqtisodiy holati**


	<i>2022 yil</i>	<i>2023 yil</i>	<i>2022 yil yanvar- iyunga nisbatan, foizda</i>
Xizmatlar	5,8	10,4	177,7
<b>Import tarkibi</b>	<b>420,7</b>	<b>506,5</b>	<b>120,4</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	14,1	15,0	105,8
Ichimliklar va tamaki	0,2	0,1	23,2
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	13,9	12,5	89,7
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	161,9	284,0	175,4
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,6	0,6	112,5
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	43,7	48,1	110,1
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat	36,2	25,3	69,9
Mashinalar va transport asbob- uskunalar	135,7	113,0	83,2
Turli xil tayyor buyumlar	13,9	8,0	57,1
Xizmatlar	0,3	-	-

Viloyatimizda tashqi savdoni qo’llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan choratadbirlar natijasida 2023 yil yanvar-iyun oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 64,7 foizni tashkil etib, hamda tashqi savdo aylanmasi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 145,1 foizni tashkil qiladi.

## **Tashqi iqtisodiy faoliyat**

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyatimiz tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2023 yil yanvar- iyun oylarida 35,3 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, o‘tgan yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 47,9 foizga etdi. O‘tgan yilning mos davriga nisbatan 12,6 foizga kamaydi.

**Tovar va xizmatlar eksportining o‘sish sur’atlari dinamikasi**  
*(2023 yil; o‘tgan yilga nisbatan, foiz)*




**Tashqi iqtisodiy faoliyat**

## *Buxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati*

2023 yil yanvar-iyun oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida o'tgan yilning shu davriga nisbatan sezilarli o'zgarishlar qayd etildi.

### **2023 yil yanvar-iyun oylarida MDH amalga oshirilgan eksport tarkibi (jamiga nisbatan foizda)**



Xizmatlar eksporti hajmi 10,4 mln.AQSH dollarini yoki eksport hajmining 7,1 foizni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 79,3 foizga ko'payganligi kuzatildi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari, turizm xizmatlari, telekomunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari hamda moliyaviy xizmatlar hissasiga to'g'ri keladi.

### **Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti**


2023 yil yanvar-iyun oylarida jami 37,8 ming tonnadan ziyod meva-sabzovot mahsulotlari 10,9 mln.AQSH dollariga eksport qilindi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 61,5 foiz) tashkil qildi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2023 yil yanvar-iyun oylarida 33,7 ming tonna sabzavotlar 8,7 mln.AQSH dollariga eksport qilingan.

Shuningdek, 4,1 ming tonna meva va rezavorlar 2,2 mln.AQSH dollariga eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,2 mln.AQSH dollariga kamaygan.

Shuni aytib o'tish joizki, mamlakatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2023 yilning yanvar-iyun oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 10,9 mln.AQSH dollariga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 38,5 foizga kamaydi).

### **Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi**

*yanvar-iyun oylari (ming t.)*



## **Tashqi iqtisodiy faoliyat**

*Buxoro viloyatining  
ijtimoiy-iqtisodiy holati*

**Viloyatda etishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport  
geografiyasi**

<i>Davlat nomi</i>	<i>2022 yil yanvar-iyun</i>			<i>2023 yil yanvar-iyun</i>		
	<i>ming tonna</i>	<i>mln AQSH dollari</i>	<i>ulushi, foiz</i>	<i>ming tonna</i>	<i>mln AQSH dollari</i>	<i>ulushi, foiz</i>
Qozog‘iston	39,8	11,3	63,5	31,0	5,6	51,3
Rossiya	3,7	3,4	19,1	5,8	3,2	29,3
Boshqa davlatlar	6,9	3,1	17,4	1,0	2,1	19,4

2023 yil yanvar-iyun oylarida import hajmi 506,5 mln.AQSH dollariga (o’sish sur’ati 120,4 foiz) teng bo‘ldi. Import tarkibida eng katta ulush mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xhash materiallar (56,1 foiz) va Mashinalar va transport asbob-uskunalar (22,3 foiz) guruhlari hisobiga to‘g‘ri keladi.

**Import tarkibi**


(2023 yil yanvar-iyun)

	<i>Mln.AQSH doll.</i>	<i>2022 yil yanvar-iyunga nisbatan, foizda</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>
<b>Import</b>	<b>506,5</b>	<b>120,4</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	15,0	105,8	3,0
Ichimliklar va tamaki	0,1	23,2	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	12,5	89,7	2,5
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xhash materiallar	284,0	175,4	56,1
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,6	112,5	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xhash mahsulotlar	48,1	110,1	9,5
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat	25,3	69,9	5,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	113,0	83,2	22,3
Turli xil tayyor buyumlar	8,0	57,1	1,5


**Tashqi iqtisodiy faoliyat**

**2023 yil yanvar-iyun oylarida MDH va boshqa xorij davlatlari bilan amalga  
oshirilgan import tarkibi, (foizda)**

**MDH davlatlari**



**Boshqa xorij davlatlari**



- Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar
- Ichimliklar va tamaki
- Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari
- Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar
- Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar
- Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar
- Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat
- Mashinalar va transport asbob-uskunalar
- Turli xil tayyor buyumlar
- Xizmatlar
- Boshqalar

**Buxoro viloyatining  
ijtimoiy-iqtisodiy holati**

**MDH va boshqa davlatlar bilan amalga oshirilgan import tarkibi**


(2023 yil yanvar-iyun)

	<i>MDH davlatlari</i>		<i>Boshqa davlatlar</i>	
	<i>mln AQSH doll.</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>	<i>mln AQSH doll.</i>	<i>Jamiga nisbatan, foizda</i>
<b>Import</b>	<b>340,5</b>	<b>100,0</b>	<b>165,9</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	13,4	3,9	-	-
Ichimliklar va tamaki	0,5	0,1	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	11,1	3,3	1,4	0,8
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar	280,7	82,4	3,2	1,9
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,6	0,2	0,3	0,2
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	19,8	5,8	29,5	17,8
Sanoat tovarlar	9,9	3,0	15,4	9,2
Mashinalar va transport asbob- uskunalar	4,1	1,2	108,9	65,6
Turli xil tayyor buyumlar	0,4	0,1	7,5	4,5

2023 yil yanvar-iyun oylarida viloyatimizga 63 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 7 ta eng yirik bo‘lgan Turkmaniston, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Xitoy Xalq Respublikasi, Germaniya, Qozog‘iston va Eron hamkor davlatlaridan jami import hajmi 460,5 mln.AQSH.dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 90,9 foizni tashkil qiladi.


**Tashqi iqtisodiy faoliyat**

**Mashina va uskunalar importi dinamikasi**  
(yanvar-iyun oylari; mln.AQSH dollari)



Mashina va asbob uskunalar importining ortib borishi to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarning o‘zlashtirilishi, ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil qilinishi va modernizatsiya qilinishida o‘z aksini topadi.

**Tashqi savdo aylanmasining qit’alar bo‘yicha tarkibi**  
(umumiy hajmga nisbatan, foiz hisobida)



**Tashqi iqtisodiy faoliyat**

## *Buxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati*

### **Statistik ko'rsatkichlarga izohlar**

**Tovar** – har qanday ko'chma mulk, shu jumladan valyuta va valyuta qimmatliklari, elektr, issiqlik va boshqa energiya turlari, transport vositalari (yo'lovchilar va tovarlar tashish uchun ishlataladigan transport vositalari, shu jumladan konteynerlar va boshqa transport uskunalari bundan mustasno), intellektual mulk ob'ektlari.

**Tovarlar eksporti** – agar qonunchilikda boshqa tartib ko'zda tutilmagan bo'lsa, tovarlarni O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan qaytarib olib kirish majburiyatisiz olib chiqish.

**Reeksport** – xorijiy tovarlar bojxona hududidan olib chiqiladigan bojxona rejimi.

**Tovarlar importi** – tovarlarni O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan qaytarib olib chiqish majburiyatisiz olib kirish.

**Reimport** – bojxona hududidan eksport rejimida olib chiqilgan O'zbekiston Respublikasi tovarlari O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksida ko'rsatilgan muddatda (olib chiqilgan paytdan boshlab o'n yil ichida) qaytarib olib kiriladigan rejim.

**Tashqi savdo aylanmasi** – mamlakatning muayyan davrdagi eksport va import qiymatlari summasi.

**Tovarlar kelib chiqqan mamlakat** – tovar to'liq ishlab chiqarilgan yoki etarli darajada qayta ishlov berilgan mamlakat (tovar etarli darajada qayta ishlov berilgan mamlakat “Bojxona tarifi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunining 26 - moddasiga asosan aniqlanadi).

**Tovarlarning belgilangan manzili** – yuklab jo'natish paytida tovar etkazib berilishi belgilangan mamlakat sifatida ma'lum bo'lgan mamlakat.

**Tovarlarning statistik qiymati** – shartnoma valyutasidan qat'iy nazar yagona bazisga keltirilgan shartnoma bo'yicha tovarlar qiymati.

**SIF (qiymat, sug'ortalash, fraxt)** – tovarlarni sotish sharti bo'lib, unga ko'ra tovar narxiga uning qiymati va tovarni sug'ortalash hamda import qiluvchi mamlakat portigacha etkazib berish xarajatlari kiritiladi.

**SIP (fraxtG'tashish va sug'ortalash)** – tovarlarni sotish sharti bo'lib, unga ko'ra tovar narxiga uning qiymati va tovarni sug'ortalash hamda import qiluvchi mamlakatning chegarasidagi belgilangan joygacha etkazib berish xarajatlari kiritiladi.

**FOB (bortda erkin)** – tovarni sotish sharti bo'lib, unga ko'ra tovar narxiga uning qiymati va tovarni kema bortigacha etkazib berish va yuklash xarajatlari kiritiladi.

**DAF (cheagaragacha etkazib berish)** – tovarni sotish sharti bo'lib, unga ko'ra tovar narxiga uning qiymati va tovarni belgilangan joygacha yoki eksport qiluvchi mamlakat chegarasidagi joygacha yoxud qo'shni mamlakat chegarasigacha etkazib berish xarajatlari kiritiladi.

**Xizmatlar (ishlar) eksporti** — O'zbekiston Respublikasining rezidentlari tomonidan norezidentlarga, iqtisodiy geografik joylashuvidan qat'i nazar, ko'rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar).

**Xizmatlar (ishlar) importi** — norezidentlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi rezidentlariga, iqtisodiy geografik joylashuvidan qat'i nazar, ko'rsatilgan xizmatlar (bajarilgan ishlar).

## **Tashqi iqtisodiy faoliyat**